

EKOLOGIYAGA ONGLI MUNOSABAT

Fanlararo uzviylik

(I-sinflar uchun)

Farzandiarimizni jismonan sog'tom, ma'naviy barkamot, intellektualsatohiyati yuksak insofaro qilib tarbiyatlashda atrof-muhitga munosabatningalohida o'rni bor. Ayniqsa, o'quvchilarga mavzuni boshqa fanlarga bog'fab tushunbrish, ularni fanlararo uzviytk asosida o'quv faoliyatiga jaib etish, cma tabiatimizga muhabbatni yanada yuksaltirish katta ahamiyatga ega. Quy da ekoilogiyaga ongh munosabatning fanlararo uzviytigi asosida iimiy-tadqiqot ishlarini olib borayotgan doimiy hamkorimiz N.Isaqulovanning 1- va 2-sinflar uchun dars ishlanmalarini diqqatingizga havola etamd. 3- va 4-sinflar uchun mashg'u'otlarniesa ketgusi sonimizda yoritamiz.

Maqsad: fan mavzulari asosida o'quvchining atrof-mulitiga nisbatan ongli munosabatini o'stirish, o'quvchilarni fanlararo faoliyatga undash.

Jihozlar: darsliklar, qog'oz, flomaster, sketch.

Dars uslubi: «Aqliy hujum»

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism: Salomlashish, navbatchi axborotini tinglash, o'quvchilarni darsga tayyorlash.

II. Uy vazifasini so'rash va baholash.

III. Yangi mavzu; Ekologik tarbiya berish yuzasidan fanlararo dars mavzusi.

O'quvchilar «Savodxon», «Odob», «Olam», «Hisobchi», «Husnixat» guruhlariga bo'linadilar. Guruhlar oldiga «Qushlarni bfc muhofaza qilamiz» muammosi qo'yiladi. Uni fanlararo aloqadorlikda hal etamiz. «O'qish» fanidan «Rivoyat», «Odobnoma» fanidan «Umidvor qushcha», «Atrofimizdagi olam» fanidan «Qushlar — bizning do'stimiz» mavzulari ustida mulohaza yuritiladi. «Matematika» va «Ona tiii» fanlaridan esa ekologik mazmunda mashq va masalaia yechamiz. Masalaning hal etilishi to'g'risida barcha ishtirokchilar o'z fikrlarini bildiradilar. Demak, aqliy hujum yo'li bilan qisqa daqiqalarda o'nlab g'oyalarni yuzaga chiqish imkoniyatlari mavjud bo'ladi.

«Savodxon» guruhi «O'qish» fanidagi «Rivoyat» mavzusini o'qib, tahlil qilib chiqqandan so'ng quyidagi fikrlarni bildiradilar:

— Chodirda kabutarning in qurgani;

~ Amir Temur mazkur manzaraning guvohi bo'lgani;

— Amir Temurning parrandalarga muruwati.

«Odob» guruhi «Odobnoma» fanidagi «Umidvor qushcha» she'rini ifodali o'qib, tahlil qligandan so'ng she'r asosida quyidagi fikrlarni bildiradilar:

— Sir bolaning qushga tosh otgani;

— Yarador qushcha armoni;

— Yarador qushcha parvarishi;

— Qushcha parvozi;

— Bolalar; qushlarni asrang!

«Olam» guruhi «Atrofimizdagi

oiam» fanidagi «Qushlar — bizning

do'stimiz» mavzusi asosida xulosa

qiladilar.

— Qushlarga in yasash;

— Inlarga don sepush;

— Inlarni daraxtga osish;

— Qushlarni muhofaza qilish.

«Husnixat» guruhi «Ona tiff»

fanidan ekologik mazmundagi

mashqlarni bajaradilar: Kitobning 42-

betidagi 73-mashqni o'qib, topshiriqni

bajarishadi.

Topshiriq: Ajratib ko'rsatilgan

so'zlarni bo'g'iniab ko'chirish qoidasiga

ko'ra ularni bo'g'inlarga ajratib yozing.

Jibljajibon

Jibljajibon — foydali qush. U

bahorda o'ikamizga birinchi bo'lib uchib

keladi. Jibljajibon mayda hasharotlar

bilan oziqlanadi.

Jib-lajibon, jibla-jibon, jiblaji-bon;

qush; ba-horda, bahor-da; uchib; ha-

sharotlar, hasha-rotlar, hasharot-lar.

«Hisobchi» guruhi «Matematika»

fanidan ekologik mazmunda masala

yechadilar:

Bin xonadonda 10 ta jo'ja parvarish qiiinmoqda. Uiarining 3 tasini mushuk yeb qo'ydi. Xonadonda nechta jo'ja qoldi?

Bor edi - 10 ta Yeb qo'ydi - 3 ta

Qoldi - ?

Yechish: $10 - 3 = 7$

Javob: 7 ta jo'ja qoldi.

Har bir guruh ishtirokchilahr oldiga qo'yilgan muammo bo'yicha yuqorida qayd etiigan mulohazaiair va takliflarni yozib boradilar. Fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflanadi va hujum davomida ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy hujum tugagach, eng yaxshi takliflar quyidagicha ajratiladi:

— Amir Temurning parrandalarga muruwati;

— Bolaiar, qushlarni asrang!

— Qushlarni muhofaza qilish;

— Jo'jalarni himoya qilish.

Nihoyat muammoni yechish uchun «Qushlarni muhofaza qilish» taklifi tanlanadi.

IV.O'tilgan mavzuni mustah-kamlash:

Amir Temur (1336-1399) o'zining markazlashgan davlatida obodonchilik ishlarini olib borgan. Movarounnahrda bog'-rog'lar yaratgan, masjidu madrasalar qurdirgan. Temur o'z davlatining shon-shuhrati uchun, ayniqsa, Movarounnahr poytaxti Samarqandning obodonchiligiga alohida ahamiyat bergan. U Samarqand atrofida o'zining xeshu aqrabolariga atab, ko'pgina go'zal bog'lar: Bog'idilkusho, Bog'ichinor, Bog'ibehisht,

jbaland, Davlatobod, j'inav, Bog'ishamolni urdirgan. Quyida Amir Temur «Vasiyatlari, maslahatlari, tanbehlari» asaridan maslahatlarni keltiramiz:

1. Kimki bi ron sahrani obod qilsa yoki koriz qursa, yo biron bog' ko'kartirsa yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa ofmasinlar, ikkinchi yili rayiyat — o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili esa qonun-qoidaga muvofiq xiroj olsinlar.

2. Xarob bo'lib yotgan yerlar egasiz bo'lsa, xolis davlatlar tarafidan obod qilinsin. Agar egasi bo'lsa-yu, lekin uni obod qilishga qurbi yetmasa, unga kerakli asbob-uskuna va boshqa narsalarni bersinlar toki u o'z yerini obod qilib olsin.

3. Xarob bo'lib yotgan yerlarda koriz qursinlar, buziigan ko'priklarni tuzatsinlar, arjqlar va daryoiar ustiga yangi ko'priklar qursinlar, yo'l ustida har manzillarga rabotlar qursinlar, yo'llarga kuzatuvchilar va soqchilar qo'ysinlar, har bir rabotga bir necha odamni joylashtirsinlarki, yo'llarni kuzatish va saqlash ishlari ularga tegishli bo'lsin. Yo'lovchilar mollarni g'aflat bosib, o'g'irlatib qo'ymasliklarining vazifasi ham o'shalarning zimmasida bo'lsin.

IV. Uyga vazifa: Fanlararo mavzular asosida ishlash va tahlil qilish,

2-sinf uchun

Maqsad: mavzuni boshqa fanlarga bog'lab tushuntirish, fanlararo ekologik tarbiya berish, fanlararo o'quv faoliyatga jalb etish.

Jihoz: darsliklar, qog'oz, flomaster.

Uslub: «Miyaga hujum» (breynstorming).

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism: Salomlashish, navbatchi axboroti, o'quvchilarni darsga tayyorlash.

II. Uy vaztfasini so'rash va baholash.

III. Yangi mavzu: Ekologik tarbiya berish yuzasidan fanlararo dars mavzusi.

Aziz o'quvchilar! Bugungi darsimizni fanlararo bog'liqlikda olib boramiz. Mazkur usul yordamida muammoni

yechish uchun shaxsiy g'oyalarimizni ilgari suramiz. Fanlararo mavzularni o'rganish jarayonida ekologiyaga qaratilgan mavzularni mustaqil tushungan holda yechishga barchangiz qatnashishingiz shart. «O'qish» fanidan «Yashil olam — yaxshi olam», «Atrofimizdagi olam» fanidan «Inson va tabiat» mavzulari hamda «Ona tili» va «Matematika» fanlaridan ekologiyaga bog'lab mashq va masalalar yechamiz. «Yashil olam — yaxshi olam» mavzusida ilgari surilgan g'oyalar quyidagicha ifodalanadi:

- Manzarali daraxtlarni yetishtirishga imkon bor.

- Yashil o'simliklar havoni zararli gaz va changdan tozalaydi.

- Kislorod bilan boyitadi.

- Havo haroratiga ta'sir qiladi.

- Daraxtzorlar suv saqlanuvchi manbalarni nurashdan, yuvilib ketishdan saqlaydi.

- Shahrimizni ko'kalamzorlash-tirishga e'tibor berish kerak.

«Inson va tabiat» mavzusidagi g'oyalar qog'oz varaqalariga quyidagicha yozib olinadi:

- Atrofimizdagi barcha narsa - tabiat hisoblanadi.

- Odam shu tabiatda yashaydi.

- O'ziga kerakli narsani undan oladi.

- Biz tabiatni asrashimtz va unga g'amxo'rlik qilishimiz kerak.

- Havo, suv ifloslanadi, o'simlik va hayvonlar kamayishi mumkin.

- Milliy bog' va qo'riqxonaiar tashkil etish yaxshi samara beradi.

- O'zbekiston «Qizi I kitobi»ga kiritilgan yovvoyi hayvonlar va o'simliklar.

«Matematika» fanidan «Tabiat» rasmi asosida misollarni yechib, rasmni birgalikda bo'yaymiz:

74-51=23 (daryo rangi - ko'k);

86+5=91 (bulut rangi - oq);

28+12=40 (osmon rangi - moviy ko'k);

70-9=61 (tog' rangi - jigar);

18-10=8 (data rangi - yashil);

- Tabiat - go'zal.

«Ona tili» fanidan maqollardagi so'zlarni aniqlaymiz:

- Kuzda qilingan

hosilga barakat.

' Yer haydasang, kuz hayda,

Kuz yuz hayda,

- Foydali mehnat qilish.

Muammoni yechish bo'yicha g'oya va takliflar doskaga yoziladi va o'quvchilar mulohaza yuritadilar. Yuqoridagi takliflarni o'quvchilar guruh bo'lib tahlil etadilar. Eng qulay va muvofiqlarini aniqlaydilar:

- Shahrimizni ko'kalamzor-lashtirishga e'tibor berishimiz;

- Biz tabiatni asrashimiz va unga g'amxo'rlik qilishimiz;

- Xalqimizning eng yaxshi an'anasiga sodiq bo'lishimiz kerak.

- Tabiat — go'zal.

- Tabiatda mehnat qilish foydalidir.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, yuqoridagi g'oyalarni doimo esda saqlashimiz va ularga sodiq qolishimiz kerak. '

IV. O'titgan mavzuni mustahkamlash:

Ob-havo darakchilari haqida suhbatolib borish.

- Qish kunlari kechasi havo ochiq bo'lsa, sovuq bo'ladi.

- Qarg'a, zag'chalar ayanib uchsa, ertasiga havo ayniydi.

- Qarg'alar betinim qag'illasa, tez orada qor yog'adi. *

- Agar qor gupillatib tez yog'sa, tez tinadi, sekin vog'sa, uzoq yog'adi va sovuq bo'ladi.

- Mushuk va itlar boshlarini oyoqlari orasiga yashirib uxlasa, ertasi kuni sovuq bo'ladi.

- Qushlar hurpayib o'tirsa, sovuq uzoq davom etadi.

- Qishda atrofga chirsillagan tovush eshitilsa, rovuq kuchayadi.

V. Uyga vazifa: mavzularni takrorlash.

**N.ISAQULOVA,
O'MKHTTKMO va UQTI.**